

O'zbekistonda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- III. Uslubiy tushuntirishlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi **270 952,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda xizmat ko'rsatish hajmi – **254 679,6** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligida – **14 338,2** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligida – **1 934,8** mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekistonda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **250 743,7** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **103,8** foizni tashkil etdi. Shundan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi **106 198,2** mlrd so'mni (**106,7** foiz), chorvachilik mahsulotlari hajmi **144 545,5** mlrd so'mni (**101,3** foiz) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng katta hajmi Farg'ona (**28 643,5** mlrd so'm), Qashqadaryo (**27 067,7** mlrd so'm), Samarqand (**26 495,8** mlrd so'm) va Andijon (**26 100,6** mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, eng kam hajm Sirdaryo (**7 016,4** mlrd so'm), Navoiy (**9 435,2** mlrd so'm) va Xorazm (**12 435,1** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (**104,8** foiz), Jizzax (**104,7** foiz), Qashqadaryo (**104,3** foiz) viloyatlarida kuzatildi.


Namangan (**102,9** foiz), Buxoro (**103,1** foiz) hamda Andijon (**103,2** foiz) viloyatlarida esa, aksincha, boshqa hududlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari qayd etildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **66,2** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **24,4** foizi fermer xo'jaliklariga, **9,4** foizi esa qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, **65,5** foiz dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **24,2** foiz fermer xo'jaliklari hissasiga, **10,3** foiz qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari,
2026-yil yanvar-iyun

	Miqdori, ming tonna	O'sish (kamayish) sur'ati, % da
Donli ekinlar	7 516,4	113,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 915,2	111,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	456,6	130,1
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	1 144,6	120,7
Kartoshka	2 254,3	115,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	422,1	129,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 774,6	113,9
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	57,5	83,5
Sabzavotlar	4 454,0	106,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	715,0	126,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 495,8	103,6
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	243,2	103,9
Poliz ekinlari	1 109,4	118,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	191,8	152,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	887,1	112,1
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	30,5	144,5
Meva va rezavorlar	2 820,1	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	588,2	112,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 132,4	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	99,5	69,7
Uzum	599,8	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	38,6	121,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	558,8	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	2,4	34,5

Mahsulot turlari bo'yicha kartoshkaning **18,7** foizi fermer xo'jaliklariga, **78,7** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,6** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning **16,1** foizi fermer xo'jaliklariga, **78,5** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,4** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **17,3** foizi fermer xo'jaliklariga, **80,0** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,7** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **20,9** foizi fermer xo'jaliklariga, **75,6** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,5** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **6,4** foizi fermer xo'jaliklariga, **93,2** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,4** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (ming tonna)**

	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
O'zbekiston Respublikasi	2 254,3	4 454,0	1 109,4	2 820,1	599,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	59,7	247,4	80,1	146,1	6,1
Andijon viloyati	246,4	479,4	55,8	591,1	34,2
Buxoro viloyati	243,6	225,8	36,7	243,3	28,5
Jizzax viloyati	90,8	218,8	120,4	89,7	3,1
Qashqadaryo viloyati	251,4	693,1	318,0	217,9	23,8
Navoiy viloyati	30,1	67,6	13,0	82,1	4,9
Namangan viloyati	234,6	220,8	80,1	188,4	19,4
Samarqand viloyati	446,4	643,9	26,8	262,0	244,6
Surxondaryo viloyati	76,3	490,0	44,8	227,9	18,1
Sirdaryo viloyati	12,3	65,2	114,2	58,0	8,3
Toshkent viloyati	82,6	360,7	32,6	122,0	28,1
Farg'ona viloyati	363,6	580,9	135,6	444,5	163,9
Xorazm viloyati	116,4	160,3	51,2	147,0	16,8

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi **144 545,5** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **101,3** foizni tashkil qildi.

Hududlar kesimida eng ko'p yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi Qashqadaryo (**15 112,7** mlrd so'm), Samarqand (**14 829,6** mlrd so'm), Buxoro (**14 152,5** mlrd so'm), Surxondaryo (**13 566,8** mlrd so'm) va Andijon (**13 395,0** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

O'z navbatida, eng past hajmlar Sirdaryo (**3 832,6** mlrd so'm), Navoiy (**6 986,6** mlrd so'm) va Xorazm viloyatlarida (**8 052,1** mlrd so'm) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (**103,9** foiz), Xorazm (**103,6** foiz), Buxoro (**102,6** foiz), Andijon (**101,7** foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan **100,9** foizni, sog'ib olingan sut **101,5** foizni, olingan tuxum **113,8** foizni, qirqib olingan jun **105,2** foizni, olingan qorako'l teri **101,8** foizni, ovlangan baliq **137,1** foizni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha tahlilida, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **8,7** foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, **79,1** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **12,2** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sut umumiy hajmining **9,1** foizi fermer xo'jaliklari, **88,3** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **2,6** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **15,5** foizi fermer xo'jaliklariga, **50,6** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **33,9** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **20,3** foizi fermer xo'jaliklari, **70,9** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **8,8** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining **22,3** foizi fermer xo'jaliklariga, **57,3** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **20,4** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **52,1** foizi fermer xo'jaliklariga, **6,4** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **41,5** foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligi qayd etildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	<i>Miqdori</i>	<i>O'sish (kamayish) sur'ati, %da</i>
Go'sht (<i>tirik vaznda</i>), ming tonna	1 299,0	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	112,8	114,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 027,8	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	158,4	100,7
Sut, ming tonna	5 096,4	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	464,5	117,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 498,2	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	133,7	112,9
Tuxum, mln dona	4 915,6	113,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	764,2	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 483,5	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	1 667,9	144,8
Jun, tonna	20 627,0	105,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 179,6	135,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	14 620,9	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	1 826,6	88,3
Qorako'l teri, ming dona	599,9	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	134,0	116,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	343,5	98,6
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	122,5	97,4
Baliq, ming tonna	75,3	137,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,2	145,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,8	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar	31,3	135,1

**2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	<i>Go'sht (tirik vaznda) (ming tonna)</i>	<i>Sut (ming tonna)</i>	<i>Tuxum, mln dona</i>	<i>Baliq (ming tonna)</i>
O'zbekiston Respublikasi	1 299,0	5 096,4	4 915,6	75,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	50,7	194,0	193,2	5,4
Andijon viloyati	105,8	435,5	418,1	7,1
Buxoro viloyati	130,6	475,9	277,3	2,9
Jizzax viloyati	103,2	376,1	245,0	6,0
Qashqadaryo viloyati	149,8	682,5	277,4	1,5
Navoiy viloyati	72,9	170,4	227,8	5,2
Namangan viloyati	77,7	307,0	461,1	8,4
Samarqand viloyati	156,4	586,8	774,1	4,1
Surxondaryo viloyati	96,4	415,5	290,5	2,4
Sirdaryo viloyati	26,4	131,4	99,2	6,5
Toshkent viloyati	146,1	399,0	1028,1	7,5
Farg'ona viloyati	97,0	491,7	376,9	5,8
Xorazm viloyati	86,1	430,4	247,0	12,6

III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi mahsuloti (xizmatlari) hajmi – bu tarmoqda o'z iste'moli va sotish uchun yetishtirilgan mahsulot qiymati, shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik, o'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash, baliqchilik va akvakultura yalpi mahsuloti (xizmatlari) qiymati asosida shakllanadigan xizmatlarning umumiy qiymatidir.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti – qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot hajmining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda hisobot davrida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymatlarining yig'indisi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – dehqon xo'jaligi boshlig'iga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (subijara) huquqi asosida berilgan yer uchastkasida dehqon xo'jaligi a'zolarining shaxsiy mehnati asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi va sotuvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida erkin savdo uchun ham, oila ehtiyojlari uchun ham mo'ljallangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyati hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar – bu yirik qishloq xo'jaligi tashkilotlari, yuridik shaxs tashkil etgan holda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, yordamchi xo'jalikka ega bo'lgan qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan tashkilotlardir.

Chorva mollari bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollarining asosiy turlari (qoramol, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va hokazo) bo'yicha barcha yosh guruhlarini o'z ichiga oladi. Go'sht yetishtirish so'yish uchun sotilgan, shuningdek, o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarining tirik vaznini o'z ichiga qamrab oladi.

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut sog'ib olish – yosh mollarni boqish uchun sarflangan og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya suti bilan belgilanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi mahsulot hajmiga kiritilmaydi.

Tuxum olish – barcha turdagi parrandalardan olingan tuxumlar miqdorini, shuningdek, kurk tovuqlar yoki inkubator yordamida jo'ja ochirish uchun sarflangan tuxumlarni ham o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63;

Aloqa uchun: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1230)

